
SEMINAR-TRENING TASHKIL ETILDI



“Vatanparvar” tashkiloti Qo’shtepa tuman O’STKda “Temir daftar” va “Yoshlar daftari” vakillari ta’lim olayotgan 7 guruh o’quvchilari uchun seminar – trening tashkil etildi.

Tadbir davomida bugungi kunda mamlakatimizda, xususan, tumanimizda yoshlar bilan ishlash sohasida amalga oshirilayotgan o’zgarishlar haqida suhbat bo’lib o’tdi. Suhbat chog’ida Qo’shtepa tumani O’quv Sport Texnika Klubi boshlig’i O.Olimov keyingi yillarda Qo’shtepa tumani yoshlari tomonidan erishilgan yutuqlarga ham batafsil to’xtalib o’tdi.



Yoshlarning ijtimoiy faolligini oshirish hamda ularda mamlakat taraqqiyotiga daxldorlik tuyg’usini shakllantirish maqsadida tuman O’quv Sport Texnika Klubi manaviyat bo’yicha bosh mutaxassisi Q.Aliyev o’zining “Yangilanayotgan jamiyatda yoshlarning o’rni” mavzusidagi ma’ruzasi bilan qatnashdi.

Seminar-trening so’ngida ishtirokchilarning fikr mulohazalari tinglandi.

Qo’shtepa tumani hokimligi Axborot xizmati.

[Bizni ijtimoiy tarmoqlarda kuzating](#)

[Facebook,](#)

2021-06-24 13:53:30